# IX. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI

**Foyda.** Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxona va tashkilotlar tomonidan 5377,6 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi.

2020- yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foyda hajmi 2245,6 mlrd. so‘mga yoki 71,7 % ga ko‘paygan.

**2021- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m* | *2020- yil yanvar-mayga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Jami** | **5377,6** | **171,1** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | - 3,5 | - |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 5574,8 | 174,7 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | - 209,9 | - |
| Qurilish | 10,4 | 2,0 m. |
| Savdo | 56,0 | 46,1 |
| Tashish va saqlash | - 8,7 | - |
| Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | - 1,2 | - |
| Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar | 7,6 | 184,2 |
| Professional, ilmiy va texnik faoliyat | - 0,7 | - |
| Boshqarish bo‘yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko‘rsatish | - 0,3 | - |
| Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish | 4,4 | 302,8 |
| Boshqalar | - 51,3 | - |

Ijobiy moliyaviy natija (foyda)ning asosiy qismi ishlab chiqaradigan sanoat (5574,8 mlrd. so‘m), savdo (56,0 mlrd. so‘m) va qurilishni (10,4 mlrd. so‘m) amalga oshiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

2021- yilning yanvar-may oylarida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda, foydaning asosiy o‘sishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ (2074,5 mlrd. so‘m), “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ (176,4 mlrd. so‘m), O‘zsanoatqurilishmateriallari uyushmasi (81,9 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarga to‘g‘ri keldi.

Foydaning pasayishi “O‘zbekneftgaz” AJ (- 43,1 mlrd. so‘m), O‘zbekiston elektrotexnika sanoati korxonalari uyushmasi (- 14,9 mlrd. so‘m), “O‘zavtosanoat” AJ (- 9,4 mlrd. so‘m) tarkibiga kiruvchi korxonalarda kuzatilgan.

**2021- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalar**

| | *Foyda, zarar (-), mlrd. so‘m* | *2020- yil yanvar-mayga nisbatan %da* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo‘yicha:** | **5377,6** | **171,7** |
| *shaharlar:* | | |
| Nurafshon | 4,7 | 45,4 |
| Olmaliq | 4685,1 | 183,2 |
| Angren | - 242,0 | - |
| Bekobod | 63,0 | 90,2 |
| Ohangaron | 333,7 | 2,2 |
| Chirchiq | 256,2 | 101,5 |
| Yangiyo‘l | 10,2 | 68,8 |
| *tumanlar:* | | - |
| Oqqo‘rg‘on | 5,5 | 42,5 |
| Ohangaron | 18,3 | - |
| Bekobod | - 0,4 | - |
| Bo‘stonliq | - 17,5 | - |
| Bo‘ka | 0,0 | - |
| Zangiota | - 14,2 | - |
| Qibray | 122,4 | 97,7 |
| Quyi Chirchiq | 12,3 | 151,8 |
| Parkent | 46,0 | 66,9 |
| Piskent | 1,5 | 139,7 |
| O‘rta Chirchiq | 6,3 | - |
| Chinoz | 0,2 | 3,3 |
| Yuqori Chirchiq | - 1,8 | - |
| Yangiyo‘l | 27,3 | - |
| Toshkent | 60,8 | 123,7 |

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Olmaliq shahar - 4685,3 mlrd. so‘m (jami foydaning 87,1 %i), Bekobod shahar - 333,7 mlrd. so‘m (6,2 %), Chirchiq shahar - 256,2 mlrd. so‘m (4,8 %) va Zangiota tumani - 122,4 mlrd. so‘m (2,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Zararlar**. 2021- yilning yanvar-may oylarida 61 ta korxona va tashkilotlar 478,7 mlrd. so‘m zarar bilan faoliyatini yakunladi.

Zararning asosiy qismi “O‘zkimyosanoat” AJ - 48,8 mlrd. so‘m (jami zararning 10,1 %i), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi - 26,3 mlrd. so‘m (5,5 %), “O‘zbekneftgaz” AJ - 8,7 mlrd. so‘m (1,8 %) tarkibiga kiruvchi korxonalar hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yilning yanvar-may oylarida zarar ko‘rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

*(jamiga nisbatan %da)*



**2021- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar summasi* | |
|---|---|---|---|
| | | *mln. so'm* | *jamiga nisbatan %da* |
| **Jami** | **61** | **478714,9** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 27 | 147268 | 30,9 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 6 | 217952 | 45,5 |
| Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsekillarni ta'mirlash | 13 | 26080,9 | 5,4 |
| Tashish va saqlash | 3 | 9793,6 | 2,0 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 2 | 3014,8 | 0,6 |
| San'at, ko'ngil ochish va dam olish | 1 | 53198,3 | 11,1 |
| Boshqalar | 9 | 21407,3 | 4,5 |

**2021- yilning yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
*(jamiga nisbatan %da)*



Zararning asosiy qismini ya'ni 217952 mln. so'm (45,5 %)i Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasiga to'g'ri keladi.

**2021- yilning yanvar-may oylarida hududlar kesimida zarar ko'rgan korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

| | *Korxonalar soni* | *Zarar ko'rgan korxonalarning ulushi, %da* | *Zarar summasi, mln. so'm* |
|---|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha:** | **61** | **100,0** | **478714,9** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 1 | 0,3 | 1206,5 |
| Olmaliq | 2 | 1,5 | 7392,9 |
| Angren | 12 | 54,8 | 263013,3 |
| Ohangaron | 5 | 17,5 | 83602,4 |
| Chipchiq | 2 | 2,8 | 13514,8 |
| Yangiyo'l | 4 | 0,5 | 2200,5 |
| *tumanlar:* | | | |
| Bekobod | 1 | 0,1 | 501,2 |
| Bo'stonliq | 6 | 11,5 | 55311,5 |
| Quyi Chirchiq | 2 | 3,0 | 14207,8 |
| Zangiota | 5 | 1,8 | 8475,2 |
| Yuqori Chirchiq | 3 | 1,3 | 6122,8 |
| Qibray | 5 | 3,6 | 17050,8 |
| Parkent | 1 | 0,0 | 6 |
| Pskent | 1 | 0,0 | 6,3 |
| Chinoz | 5 | 0,8 | 3719,3 |
| Yangiyo'l | 4 | 0,4 | 1985 |
| Toshkent | 2 | 0,1 | 398,6 |

## Korxona va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati[1)]

2021- yil 1- iyun holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 10158,4 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgani 519,1 mlrd. so‘mni yoki jami qarzdorlikning 5,1 %ini tashkil etdi.

Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 2,6 martaga ko‘paydi (m.k) va jami debitor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 104,3 %ni tashkil qildi.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, debitor qarzdorligi yuqori ko‘rsatkich Bekobod shahar - 1896,5 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 18,7 %i), Olmaliq shahar - 1583,9 mlrd. so‘m (15,6 %), Qibray tumani - 989,5 mlrd. so‘m (9,7 %) va Angren shahar - 940,1 mlrd. so‘m (9,3 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi debitor qarzdorlik Parkent - 19,8 mlrd. so‘m (viloyat bo‘yicha jami debitor qarzdorlikning 0,2 %i), Bo‘ka - 23,1 mlrd. so‘m (0,2 %) va Oqqo‘rg‘on - 26,1 mlrd. so‘m (0,3 %) tumanlarida pastligini ko‘rish mumkin.

### 2021- yil 1- iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

| | Jami, mlrd. so‘m | undan: | | | Muddati o‘tgan qarzdor-likning ulushi, %da |
|---|---|---|---|---|---|
| | | xaridor va buyurt-machilar | etkazib beruvchi va pudratchi-larga berilgan avanslar | ichki idora-viy | |
| **Jami:** | **487,0** | **449,3** | **6,2** | **476,1** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 210,9 | 190,3 | 11,8 | 209,3 | 40,6 |
| Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’min-lash va havoni konditsiyalash | 178,8 | 175,9 | 0,7 | 178,8 | 34,5 |
| Qurilish | 0,4 | - | - | - | 0,1 |
| Boshqalar | 96,9 | 83,1 | -6,3 | 88 | 24,8 |

[1)]*Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.*

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021- yil 1- iyun holatiga jami debitor qarzdorligi 3578,6 mlrd. so‘m yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 35,2 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani - 16,8 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 4,7 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorligi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ - 1472,4 mlrd. so‘m (41,1 %), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ - 544,7 mlrd. so‘m (15,2 %), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ - 532,5 mlrd. so‘m (14,9 %), “O‘zkimyosanoat” AJ - 365,3 mlrd. so‘m (10,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining eng ko‘p debitor qarzdorlikdagi o‘sishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda – 1,7 m.k (606,8 mlrd. so‘m), “Hududgazta’minot” AJ - 1,3 m.k (116,2 mlrd. so‘m) kuzatildi.

Debitor qarzdorlik “O‘zbekneftgaz” AJda - 12,9 %ga (- 304,3 mlrd. so‘m), “O‘zavtosanoat” AJda - 68,9 %ga (- 156,6 mlrd. so‘m) kamaygan.

2021- yil 1- iyun holatiga kreditor qarzdorlikning umumiy hajmi 13818,2 mlrd. so‘mni, undan muddati o‘tgani – 417,1 mlrd. so‘mni yoki jami kreditor qarzdorlikning 3,0 %ini tashkil etdi.

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik 2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,2 martaga ko‘paydi hamda jami kreditor qarzdorlik o‘tgan yilga nisbatan 142,0 %ni tashkil qildi.

Monitoring qilinadigan xo‘jalik birlashmalarining 2021- yil 1- iyun holatiga jami kreditor qarzdorligi 5303,3 mlrd. so‘mni yoki viloyat bo‘yicha jami qarzdorlikning 38,4 %ini, shu jumladan muddati o‘tgani - 50,6 mlrd. so‘mni yoki mos ravishda 3,0 %ni tashkil qildi

Muddati o‘tgan kreditor qarzdorlik hajmi 54,4 mlrd so‘mga ko‘paydi, shu jumladan “O‘zkimyosanoat” AJda - 41,3 mlrd so‘mga ko‘payib, viloyat bo‘yicha jami muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning 9,9 %ini tashkil etdi.

**2021- yil 1- iyun holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi**
*(jamiga nisbatan %da)*




**2021- yil 1- iyun holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha muddati o'tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi**

| | Jami, mlrd. so'm | undan: | | | | Muddati o'tgan qarzdorlikning ulushi, %da |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | etkazib beruvchilar va pudratchilarga | Byudjetga to'lovlar | davlat maqsadli fondlariga to'lovlar | ichki idoraviy | |
| **Jami** | **417,1** | **333,4** | **1,9** | **2,2** | **49,2** | **100,0** |
| Ishlab chiqaradigan sanoat | 93,3 | 37,7 | 1,1 | 0,8 | 34,6 | 22,4 |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash | 289,4 | 285,8 | - | 1,1 | - | 69,4 |
| Tashish va saqlash | 5,9 | 0,7 | | | | 1,4 |
| boshqalar | 28,5 | 9,2 | 0,8 | 0,3 | 14,6 | 6,8 |

**Xo‘jalik boshqaruv organlarida jami kreditor qarzdorlikning debitorlikka nisbatan oshishi**

| | Kreditor qarzdorlikning debitorlikdan oshishi | |
|---|---|---|
| | *mlrd. so‘m* | *debitorga nisbatan %da* |
| “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ | 1309,9 | 52,9 |
| “O‘zavtosanoat” AJ | 191,0 | 64,6 |
| “Issiklik elektr stansiyalari” AJ | 100,0 | 84,5 |
| “O‘zkimyosanoat” AJ | 74,4 | 83,1 |
| “O‘zbekneftgaz” AJ | 40,7 | 52,5 |

Jami kreditor qarzdorlikning debitordan oshishi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ – 1309,9 mlrd. so‘m (52,9 %), “O‘zavtosanoat” AJ – 191 mlrd. so‘m (64,6%), “Issiklik elektr stansiyalari” AJ – 100,0 mlrd. so‘m (84,5 %), “O‘zkimyosanoat” AJ – 74,4 mlrd. so‘m (83,1 %.), “O‘zbekneftgaz” AJ – 40,7 mlrd. so‘m (52,5 %) hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Hududlar bo‘yicha ko‘rilganda, yuqori kreditor qarzdorlik Olmaliq - 3156,9 mlrd. so‘m (22,8 %), Angren - 1947,3 mlrd. so‘m (14,1 %) va Chirchiq - 1339,3 mlrd. so‘m (9,7 %) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Bunga qarama-qarshi, kreditor qarzdorlikning Oqqo‘rg‘on - 12,5 mlrd. so‘m (0,09 %), Parkent - 17,6 mlrd. so‘m (0,1 %) va Bo‘ka - 21,4 mlrd. so‘m (0,2 %) tumanlarida pastligini ko‘rish mumkin.